

# BASMALA

Tarjimonlar:

Vazira Shodiyeva  
Nargiza Atabayeva



# BASMALA

*Tarjimonlar:*

Vazira Shodiyeva

Nargiza Atabayeva



## SMELE

*Tercümanlar:*

Vazire Şadiyeva

Nergize Atabayeva

3548 12.266

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
ToshDO'TAU  
AXBOROT-RESURS MARKAZI**

“art” nashriyoti

Toshkent – 2018

UO'K: 821.512.161-1(082)

KBK: 84(5Ý)

B 33

Basmala : She'rlar / Tarjimonlar: Vazira Shodiyeva,  
Nargiza Atabayeva.–T.:«Sano-standart» nashriyoti,  
2018-yil. – 176 bet.

*So'z boshi muallifi va mas'ul muharrir:*

**Abdumurod Tilavov**

Filologiya fanlari nomzodi

**Danışman:**

Doç.Dr. Ahmet Karaman

Afyon Kocatepe Üniversitesi

Çağdaş Türk Lehceleri ve Edebiyatları Bölümü

Mazkur kitobda o'zbek shoirlari ijodidan ayrim namunalarning turk tilidagi va turk shoirlari she'rlarining o'zbek tilidagi tarjimalari jamlangan.

Ikki do'st, qardosh xalq o'rtaasida munosabatlar yangi pallaga kirayotgan kunlarda ushbu to'plam ko'nglingizga, uyingizga va o'yingizga ma'rifat yog'dusini sochishini, hayot yo'lingizni yoritishini, qondosh, jondosh xalqlarimiz o'rtaasidagi do'stlik, hamkorlikning mustahkamlanishiga hissa bo'lib qo'shilishini tilaymiz.

\*\*\*

Kitapta bazı Özbek şairlerinin şiirlerinden örneklerin Türkçeye, bunan yanı sıra Türk şairlerinin şiirlerinden bazı örneklerin Özbekçe tercümeleri cem edilmiştir.

İki dost, kardeş halk arasındaki ilişkilerin yeni bir döneme girdiği bu günlerde işbu kitabın yolumuza, gönlünüze, evinize ve düşüncenize marifet ışığı olarak girmesini, dostluk, kardeşliğe katkı sağlamasını temenni ederiz.

UO'K: 821.512.161-1(082)

KBK: 84(5Ý)

ISBN: 978-9943-5462-6-4

©Vazira Shodiyeva va Nargiza Atabayeva

© «Sano-standart» nashriyoti, 2018

**Mundarija:**

**Zohit Zarif o‘g‘li**

**(Vazira Shodiyeva tarjimasi)**

1. Shunday bo‘lgan, shunday so‘zla ..... 8

**Mustafo Osim Ko‘ksal**

**(Vazira Shodiyeva tarjimasi)**

2. Bismilloh ..... 10

**Jamol Safi**

**(Nargiza Atabayeva tarjimasi)**

3. Bir bo‘g‘in ishq..... 12

**Jan Yujal**

**(Vazira Shodiyeva tarjimasi)**

4. Telba yurak ..... 16

**Jahit Sidqi Taranji**

**(Nargiza Atabayeva tarjimasi)**

5. Bir o‘lka xohlayman ..... 17

**Ertug‘rul O‘zdamar**

**(Vazira Shodiyeva tarjimasi)**

6. Bo‘lmas ..... 18

7. Qadar ..... 20

**Mavlono Jaloliddin Rumiy**

**(Vazira Shodiyeva tarjimasi)**

8. Xudo ..... 22

9. Allohim, bu vaslni hijron aylama ..... 23

10. Tavba ..... 25

11. Ne bo‘lolsang bo‘l ..... 28

<b>Sabahiddin Ali</b> <b>(Nargiza Atabayeva tarjimasi)</b>	
12. Bolalar kabi .....	30
<b>Sazoi Karakoch</b> <b>(Nargiza Atabayeva tarjimasi)</b>	
13. Qor .....	32
<b>O'rhan Vali Kanik</b> <b>(Nargiza Atabayeva tarjimasi)</b>	
14. Tushuntirib berolmayman .....	34
<b>Oshiq Veysal</b> <b>(Nargiza Atabayeva tarjimasi)</b>	
15. Mening sodiq yorim .....	36
<b>Yashar Kondamir</b> <b>(Vazira Shodiyeva tarjimasi)</b>	
16. Sen bilarsan .....	39
<b>Umar Ziyo Soyyigit</b> <b>(Vazira Shodiyeva tarjimasi)</b>	
17. Salom bo'lsin.....	40
18. Sog'indim.....	42
19 Onasining qiymatini .....	44
20. Nasihat.....	46
21. Shukr, Mavloga Mavloga.....	48
22. Yetmas .....	50
<b>Yunus Emro She'rlari</b> <b>(Vazira Shodiyeva tarjimasi)</b>	
23. Ismi go'zal, o'zi go'zal Muhammad .....	54
24. Menga Seni Sening kerak .....	56
25. Alloh .....	59
26. Yusufni yo'qotdim .....	61
27. Qahring-da xush, lutfing-da xush.....	62
28. Ishqsizlara berma o'git .....	64
29. Qolganlara salom bo'lsin .....	66

## Do'stlikka, qardoshlikka qo'shilgan hissa

"Ey Navoiy, umr shamoldek o'tadi, shamolga bo'lsa har qancha yugurib ham yetib bo'lmaydi. Shunday ekan, vaqtingni xush o'tkaz", – deydilar so'z mulkining sultonı Hazrat Mir Alisher Navoiy.

Hikmatdagi "xush o'tkaz"ni o'yin-kulgu, doimiy xursandchilik deya tushunmaslik kerak. Maqsud Shayxzoda ta'kidlaganidek "G'azal mulkining sultonı"ning o'z-o'ziga o'giti va barchamizga buni "Ey inson! Sen o'z vaqtingni insonlarga foydali ishlar qilib, ilm-ma'rifat o'rganib, ezgulikka intilib o'tkaz", deb anglamoq, tushunmoq kerak.

Qo'lingizdagi ushbu mo'jaz to'plam ham talabalik yillaridayoq til o'rganishga ishtiyoqi balandligi, noyob tarjimonlik qobiliyati, ajoyib insoniy fazilatlari bilan alohida ajralib turgan shogirdlarim – Vazira Shodiyeva va Nargiza Atabayevalarning sa'y-harakatlari mevasidir.

To'plamda o'zbek shoirlari ijodidan ayrim namunalarning turk tilidagi va turk shoirlari she'rlarining o'zbek tilidagi tarjimalari jamlangan.

Tarjimonlar o'zлari o'qib, uqib, ta'sirlangan nazm javohirlarini tanlab, ming bir istihola va andisha bilan Siz azizlarga taqdim etishgan. Bu tuhfa sizga manzur bo'lishiga aminmiz. Tarjimonlar to'plamga "Basmala" (Bismillah) deya nom qo'yishibdi. Bunda ezgu niyat, teran ma'no mujassam. Fazilatli shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari yozadilar:

"Alloh taolo o'z kitobini "Bismillah" bilan boshlagani musulmonlar uchun ham o'rnak, ular ham doim o'z so'zlarini va ishlarini "Bismillah" bilan boshlashlari lozim. Payg'ambar alayhissalom hadislaridan birida:

"E'tiborli har bir ish "Bismillah" bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir" deganlar. Bu "Bismillah"siz boshlangan ishning barakasi bo'lmaydi, "oqibati yomon bo'ladi" deganidir.

Ikki do'st, qardosh xalq o'rtasida munosabatlar yangi pallaga kirayotgan kunlarda ushbu to'plam ko'nglingizga, uyingizga va o'yingizga ma'rifat yog'dusini sochishini, hayot yo'lingizni yoritishini, qondosh, jondosh xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik, hamkorlikning mustahkamlanishiga hissa bo'lib qo'shilishini tilayman.

**Abdumurod Tilavov,**  
filologiya fanlari nomzodi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyoti universitetining dotsenti

## DOSTLUK, KARDEŞLİĞE KATKI

“Ey Nevai, ömür rüzgar gibi esip gider. Rüzgara koşarak da yetişemesin. Öyle ise, zamanını hoş geçir”.

Vecizedeki “hoş geçir”i oyun, devamlı eğlence olarak kabul etmemek gerek. İnsanlara yararlı, bilim, marifet, hayırlı işler diye algılamak daha da uygundur.

Elinizdeki işbu kitap da ta talebelik dönemlerinde dil öğrenme, tercümeye olan ilgi, bunun yanısıra kendine öz yetenek, çaballarıyla göze çarpan iki öğrencim – Vazire Şadiyeva ve Nergize Atabayevaların bilim, tecrübe ve çabalalarının bir meyvesidir.

Kitapta bazı Özbek şairlerinin şiirlerinden örneklerin Türkçeye, bunan yanısıra Türk şairlerinin şiirlerinden bazı örneklerin Özbekçe tercümeleri cem edilmiştir.

Tercümanlar kendilerinin okuyup, anlayıp, etkilendikleri nezim incilerini seçip Siz değerli okuyuculara sunmaktadır. Bu nezim incilerini Sizin de beğeneceğinize eminiz.

Tercümanlar kitabı “Besemele” diye adlandırmışlardır.

Burada samimi, hayırlı niyet, aynı zamanda derin anlam vardır. Faziletli merhür Üstat Şeyh Muhammed Sadık Muhammed Yusuf Hazretleri şöyle yazmaktadır:

“Allah Teala kendi kitabını “Bismillah...” la başladığı, müslümanlara hem öрнектir; onlar da her zaman kendi sözlerine ve işlerine bismillahla başlamaları gerekmektedir. Peygamber Efendimiz aleyhisselatü ve sellem hadislerinden birinde buyuruyorlardı: “Önemli her hangi bir iş Besmele ile başlamaz iken, onun sonu kesiktir”. Yani, berekisi olmayacağı, tamamlanmayacaktır.

İki dost, kardeş halk arasındaki ilişkilerin yeni bir döneme girdiği bu günlerde işbu kitabın yolumuza, gönlünüze, evinize ve düşüncenize marifet ışığı olarak girmesini, dostluk, kardeşliğe katkı sağlamasını temenni ederim.

Doç.Dr. Abdumurad Tilavov  
Ali Şir Nevai Taşkent Devlet Özbek Dili  
ve Edebiyatı Üniversitesi Öğretim Üyesi

# Turk adabiyotidan go'zal misralar



*Avval bismilloh  
Eng go'zal panoh...*

**SHUNDAY BO'LGIN, SHUNDAY SO'ZLA**

Avval bismilloh  
Eng go'zal panoh.

Allohim,  
Sen umrim bo'yi,  
Tark etma qo'lim,  
Qulatma quyi.

Allohim, nechun  
Yaratding meni?  
Qalbimga naqsh et go'zallik,  
To'siqlardan poklagin yo'lim.

Allohim,  
Qanday go'zal va yorqin,  
Bo'lsa sevgan qullaring,  
Meni ham shunday qilgin ilohim.

Allohim,  
Go'zallarning go'zali Rabbim!  
Kimki ezgulik tilaydi Sendan,  
Meni ham shuni tilayman Sendan.

Allohim,  
Hazrati Nabiy  
Qaysi yomonlikdan sig'indi Senga,  
Meni ham o'shandan asragin doim.

Allohim,  
Toki biz hayot ekanmiz,  
Hech bir zamon, hech bir davrda,  
Egasiz, sarbonsiz qoldirma bizni...

## BÖYLE OL BÖYLE SÖYLE

*Once besmele  
En güzel kelime*

*Allahım  
Yol boyunca  
Bırakma elimi  
Düşerim sonra*

*Allahım  
Niçin halkettinse beni  
Karbime söyle iyice  
Engellerden arınsın yolum*

*Allahım  
O güzeller güzeli  
Hangi iyilik diledi senden  
Dilerim ben de öylelerini*

*Allahım  
Peygamber efendimiz  
Hangi şerlerden sigindiysa sana  
Upuzak tut benden de onları*

*Allahım  
Yol boyunca  
Tarih boyunca  
Başıboş bırakma bizi...*

## BISMILLOH

Allohdır ilk so‘zimiz,  
İlyon ichra yuzimiz.

Har bir ish nomi bilan,  
Bo‘lgay xush ma’ni bilan.

Uyg‘onarkan biz har saboh,  
Darhol deymiz bismilloh!

Taom yeb, suv icharkan,  
Yo Kitobin ocharkan...

Aytar barcha bismilloh,  
Yoddan chiqarmas nogoh.

Yuzlansam gar Rabbimga,  
Quvvat kelur qalbimga.

“Alloh” la, oz ko‘p bo‘lur,  
Mashaqqat yo‘q, xo‘b bo‘lur.

Omad senga yuz burgay,  
Bismilloh madad bergay.

Tushirmasman tilimdan,  
Alloh tutar qo‘limdan.

## BESMELE

*Allah'tır ilk sözümüz,  
İman dolu özümüz.*

*İşler, Allah adıyla,  
Başlar, biter tadiyla.*

*Uyanırken her sabah,  
Derim hemen Bismillah!*

*Bir şey yerken, içerken,  
Kitabımı açarken...*

*Çekerim hep besmele,  
Unutmam bir kez bile.*

*Yönelirim Rabb'ime,  
Kuvvet gelir kalbime.*

*Allah'la az, çok olur,  
Güçlüklər hep yok olur.*

*Başarıyla el ele,  
Verir, çeken besmele.*

*Düşürmem hiç dilimden,  
Allah tutar elimden.*

**BIR BO‘G‘IN ISHQ**

Bormi orangizda meni tanigan?  
 Yashamasdan fosh etilmas sirim bor, mening.  
 Hamma bilgan, dong‘i dunyoga ketgan,  
 Kimligimni ta’riflash qiyindir mening.

Bulbul mening tilim bilan sayraydi,  
 Bir gul uchun jonini ham shaylaydi,  
 Yuragim cho‘g‘, otashdek lovullaydi,  
 Yong‘inimni o‘chirolmas qor, mening.

Kimlar sulton edi, qirol, shoh edi,  
 Men bilan o‘zgardi tole’yi, baxti.  
 Yer bilan bir bo‘ldi toji va taxti,  
 Aql olmas hunarlarim bor, mening.

Komil edi, johil qildim olimni,  
 Vahshiy edi, yaxshi qildim zolimni,  
 Yovuz edi zabun qildim Salimni,  
 Har yozuqni buzgan zo‘rim bor, mening.

Yer yuzida tarqatdim men varamni,<sup>1</sup>  
 Luqmon Hakim topolmadi choramni,  
 Asli uchun kul ayladim Karimni<sup>2</sup>,  
 Ibrohim otilgan cho‘g‘im bor, mening.

<sup>1</sup> Varam – kasallik. Sil kasalligi.

<sup>2</sup> Asli ve Karim – turk xalq og‘zaki ijodidagi ishq dostoni qahramonlari.

Sabab ba'zan Layli, ba'zan Shirindi,  
Men sabab purviqor tog'lar tilindi,  
Bilak kuchim Farhod bilan bilindi,  
Quvvatim, qudratim, nurim bor, mening.

Ilohim-la Mavlononi do'ndirdim,  
Yunus ila g'azablarni tindirdim,  
Gunohim-la o'choqlarni so'ndirdim,  
Allohdanman, xayr mening, sha'r mening.

Mening uchun yaratildi Muhammad,  
Mening uchun yog'dirildi bu rahmat,  
Avliyoning so'zidagi muhabbat,  
Anbiyoning yuzidagi nur – mening.

Kimsasizman, ismim ham yo'q, xasmim-da,  
Ko'rinxayman, jismim ham yo'q, rasmim-da.  
Tillardadir, bir bo'g'inlik ismim-da,  
Xonadonim, ko'ngil degan joy, mening...

Mening ismim – ISHQ!!!

## **TEK HECE AŞK**

*Var mı beniinizde tanıyan?  
Yaşanmadan çözülmeyen sır benim,  
Kalmasa da şöhretimi duymayan,  
Kimliğimi tarif etmek zor benim.*

*Bülbül benim, lisanımla ötüştü,  
Bir gül için can evinden tutuştu.  
Yüregine Toroslar' dan çığ düştü,  
Yangınımı söndürmedi, kar benim.*

*Niceler sultandı, kraldı, şahı,  
Benimle değişti talihi, bahti.  
Yerle bir eyledim taç ile tahtı,  
Akıl almaz hünerlerim var benim.*

*Kamil iken, cahil ettim alimi,  
Vahşi iken, yahşi ettim zalimi.  
Yavuz iken, zebun ettim Selimi,  
Her oyunu bozan gizli zor benim.*

*Yeryüzünde ben ürettim veremi,  
Lokman Hekim bulamadı çaremi.  
Aslı için kül eyledim Keremi,  
İbrahim'in atıldığı kor, benim.*

*Sebep bazı Leyla bazı Şirindi,  
Hatırım için yüce dağlar delindi.  
Bilek gücüm Ferhat ile bilindi,  
Kuvvet benim, kudret benim, fer benim.*

*İlahimle Mevlana'yi döndürdüm,  
Yunusumla öfkeleri dindirdim.  
Günahimla çok ocaklar söndürdüm,  
Mevladanım hayır benim, şer benim.*

*Benim için yaratıldı Muhammed,  
Benim için yağıdırıldı o rahmet.  
Evliyanın sözündeki muhabbet,  
Enbiyanın yüzündeki nur benim.*

*Kimsesizim hismim da yok hasmim da,  
Görünmezim cismimde yok resmimde.  
Dil üzmezim tek hece var ismimde,  
Barınağım gönül denen yer benim.*

*Benim adım – Aşk!*

### TELBA YURAK

Seni yulduzlarga mengzayman,  
Ulardek go'zalsan, yorqin, bejirim.  
Lekin orangizda bir farqni sezaman,  
Ular millionta, sen-chi, bittasan, jonim...

### DELİ YÜREK

Seni yıldızlara benzetiyorum  
Onlar kadar etkileyici, çekici ve güzelsin  
Ama aranızda tek fark var  
Onlar milyonlarca sen birtanesin...

JAHIT SIDQI TARANJI

## BIR O'LKA XOHLAYMAN

Bir o'lka xohlayman,  
Osmon moviy, yaproq yashil, dalalar sariq bo'lsin,  
Qushlarning, gullarning makoni bo'lsin...

Bir o'lka xohlayman,  
Na boshda dard, na ko'ngilda hasrat bo'lsin,  
Qondoshlar janjaliga bir yakun bo'lsin.

Bir o'lka xohlayman,  
Na boy-faqir, na sen-men farqi bo'lsin,  
Qish kuni hammaning yotog'i bo'lsin.

Bir o'lka xohlayman,  
Yashamoq, sevgidek chin dildan bo'lsin,  
Birgina shikoyat o'limdan bo'lsin...


## MEMLEKET İSTERİM

Memleket isterim  
Gök mavi, dal yeşil, tarla sarı olsun;  
Kuşların çiçeklerin diyarı olsun.

Memleket isterim  
Ne başta dert, ne gönülde hasret olsun;  
Kardeş kavgasına bir nihayet olsun.

Memleket isterim  
Ne zengin fakir, ne sen ben farkı olsun;  
Kış günü herkesin evi barkı olsun.

Memleket isterim  
Yaşamak, sevmek gibi gönülden olsun;  
Olursa bir şikayet ölümde



**BO'LMAS**

Yur kezaylik bu yerlarni, jon latofatim,  
 Bor alamim har kimsadan, sir-sinoatim.  
 Malak jonim, yana ortar sog'inch, hasratim,  
 Necha yildir hamon bu dard, mana hal bo'lmas.

Ertug'ruling sani, salom aylagay yora,  
 Malak isming hijolab bu tilim ovora.  
 Tilinganmi, shundan chap ko'ksimda yara,  
 Qon otilar, yuzim yonar, lekin ol bo'lmas...

Ey Malagim, mening aziz jonim, yuragim,  
 Qisqa umrim, yolg'iz tilagim ham keragim.  
 Qalbim uyisan va yana ko'ngil tirkagi.  
 Chechak hasrat, ari horg'in, bol bo'lmas.

Sevgan edim seni tanimoq, bilmoq ila,  
 Ko'ngil sevgan edi ishqingda o'lmoq ila.  
 Sog'inch mangu emas, azizim sabr ayla,  
 Bilki, sevgan ko'ngil o'zgaga el bo'lmas.

Sarv qomatim, qalam qoshligim-u nozlim,  
 Jon jigarim, totli tillim-u pok so'zlim.  
 Til ayladim qalamimni-yu xo'p yozdim,  
 Yozgan qalam, hayron balki, el bo'lmas.

Ertug'rulman debon aytdim jonim, bu so'zni  
 So'zning eng yaxshisi uning bo'lgani ozi.  
 Balki kifoya qiladir ushbuning o'zi:  
 "Ishq bo'lmasa, bulbul bo'lmas va gul bo'lmas!"

## OLMAZ

*Can yoldaşım, buralarda gezerim,  
Vardır acım, her kimseden gizlerim,  
Melek canım, artar hasret özlerim,  
Uzun çağlar, hasret hasret kal olmaz.*

*Ertuğrulum, selam ederim yare,  
Melek adın hecelerim avare,  
Deşilince sol böğrümde şu yara,  
Kan kesilir, yüzüm yanar, al olmaz.*

*Ey Meleğim, benim canım, yüregim,  
Kısa ömrüm, tek dileğim, ereğim,  
Can evimsin, bir de gönül direğim,  
Çiçek hasret, ari yorgun, bal olmaz.*

*Ben sevmışım, tanımakla, bilmekle,  
Gönlüm sevmış can yoldaşın ölmekle,  
Sabret canım, hasret sürmez, dur bekle,  
Bil ki şunu, seven gönül, el olmaz.*

*Selvi boyolum, kalem kaşlıım, pek nazlıım,  
Can ciğerim, tatlı dillim, pak sözlüm,  
Dil eyledim kalemimi, hep yazdım,  
Yazan kalem, şaşar belki, el olmaz.*

*Ertuğrulum, derim canım bu sözü,  
Çoktan iyi, ortadan da, söz ażi,  
En iyisi, yazmak belki, şu özü,  
Aşk olmasa, bülbül olmaz, gül olmaz.*

## **QADAR**

Tunning beunligin tinglayman, kimsasiz,  
Derazalar sovuq ayoz qadar, muz qadar.  
Chalg'iyman xotiralarga, lek bari sassiz,  
Ko'nglim ham yozilar quyosh qadar, kun qadar.

Uzanaman sovuq yopinchiquqlarga,  
Tasavvur qadar, bunda seni topmoq qadar,  
Anglayman barin nega, nelarga,  
Sensizlik g'urbat kabi, g'urbat, o'lmoq qadar.

Vatansizlik g'amidek qonmas chanqog'im.  
Yondim sensizlikka uyqusiz chog'im.  
Faqat yolg'izlikkamas. Va sensiz bog'im,  
Sog'indim seni, seniki qadar, sen qadar.

Moychechaklarni eslayman, tuproqda,  
Va qizg'aldoqlarni. Uyg'otganda bahor.  
Eslaganim yana nelar...jonim, bir qara.  
Qo'shgin. Mingdan ziyod xili bor sen qadar.

Kunga boqsam, hali uyg'onmagan kechadan,  
Kunga qarayman, ulug'vor, ko'ngling qadar.  
Lablarimda duo kabi bir tuyg'u... injadan,  
Isming shivirlagayman ko'nglim qadar.

Barcha yilni o'tkazdim soniyalarda,  
Bahorni kutmoq qadar, qayda bu bahor.  
Ashkim to'kildi, o'zga elda necha bor,  
Hayqiriqlarim haqiqat qadar, men qadar.

## KADAR

Gecenin sessizliğini dinliyorum kimsesiz  
Pencereler soğuk , ayaz kadar, buz kadar  
Hatıralarımı çağlıyorum, hep sessiz  
Gönlüm yayılıyor, güneş kadar, gün kadar

Uzaniyorum soğuk battaniyelere,  
Düşlemek kadar, burda seni, bulmak kadar,  
Düşünüyorum hep, nelere, niyelere,  
Sensizlik gurbet gibi, gurbet, ölmek kadar.

Sılaya hasretlik değil ki bu. Ve susuzluğum,  
Yandım sensizliğime. Ve uykusuzluğum,  
Kimsesizliğime değil, hep bu huysuzluğum,  
Özledim seni, senin kadar sen kadar.

Papatyaları hatırlıyorum, toprakta,  
Ve gelincikleri. Uyandırdıkları bahar,  
Hatırladıklarım daha neler... bir bak da,  
Ekle. Dahası var binbir çeşit. sen kadar.

Güne bakıyorum, uyumamış geceden,  
Güne bakıyorum yüceden, gönlün kadar ,  
Dudaklarımда, dua gibi inceden  
Adını mırlıdanıyorum, gönlüm kadar.

Hep yılları yaşıyorum saniyelerde,  
Baharı beklemek kadar, nerede bu bahar  
Tek değil ağlamaklığım, yaban ellerde  
Hıçkırıkmaklığım da, gerçek kadar, ben kadar

## XUDO

Azon ayttir minoradan tubanga,  
To'ldir quvonchlarga dilni, ey Xudo,  
Saratonda soya ber Turk elimga,  
Tillarini bulbulzabon qil, Xudo.

Sog'indim men Samarqandni, Uralni,  
Elim ko'rmay yot ellarda o'tirmam,  
Ko'plab baxtdan bizga tushgani yig'lovmi?  
Turkiy elni yot ellarda bitirma.

## HIDAY

Azan eyttir minaradan tübenge,  
Kuvanç tutır küngillerni iy Hiday,  
Cey kinleri Türk illeri külenke,  
Bulbul yasa tillerini iy Hiday.

Sagındım bik Semerkantni Uralni,  
İlni kürmiy yat illerde ütirme,  
Küp bahitten bizge tişken yiğlav mi?  
Türk milletin yad illerde bitirme.

## **ALLOHIM, BU VASLNI HIJRON AYLAMA**

Allohim, bu vaslni hijron aylama,  
Ishqning sarkushlarin nolon aylama.

Muhabbat bog‘ini sabza rang ayla,  
Mastu bog‘larni vayron aylama.

Telba yaproqni uzma xazon kabi,  
Xalq boshini egik, giryon aylama.

Qushlarning inini, og‘ochini,  
Buzma ki, qushlarni parron aylama.

Qum ila mumlarni qorishtirma hech,  
Dushmanni ko‘r ayla, shodon aylama.

O‘g‘rilarkim kunduzning dushmani,  
Ularning ishlarin oson aylama.

Iqbol qiblasi yolg‘iz bu halqadir,  
Umid ka’basin bunda vayron aylama.

Bu chodir iplarin shunchaki bog‘lama,  
Chodir Seningdir magar, sulton aylama.

Bormi hijrondan ham talxi, dunyoda,  
Ne qilsang qil, vale hijron aylama.

## **ALLAHIM, BU VUSLATI HİCRAN ETME**

Allahım bu vuslatı hicran etme.  
Aşkın sarhoşlarını nalan etme.  
Sevgi bahçesini yemyeşil bırak.  
Bu mestlere bahçelere kasdetme.  
Dalı yaprağı vurma hazan gibi.  
Halkını başı dönmiş zelil etme.  
Kuşunun yuvasının ağacını.  
Yıkma da kuşlarını perran etme.  
Kumunu ve mumunu karıştırma.  
Düşmanları kör et de şadan etme.  
Hırsızlar aydınlığın düşmanıdır.  
Onların işlerini asan etme.  
İkbal kıblesi yalnız bu halkadır.  
Umut kabesin öyle viran etme.  
Bu çadır iperini öyle katma.  
Çadır senindir eya sultan etme.  
Yok dünyada hicrandan daha acı.  
Ne istiyorsan et de onu etme.

## TAVBA

Ey cholg'uchi,  
Ushbu g'azalni o'qi:  
Sevgilidan kechdim, de.  
Gul, tikandan kechdim, de.  
Tavba qildim de yana.

Bir kuni sarxush edim,  
Bir kuni xuddi senday.  
Ikkisidan qo'l yuvdim  
Endi yana tavbada,  
Qildim tavbamga tavba.

Qayda elning soqiysi?  
Jomni to'ldirsa edi.  
Or nadir,  
Nomus nadir?  
Mastu oshiq bo'libman.

Oshiq bo'libman, oshiqlik istab  
Yana tavba qilurman,  
Nam va quruqqa tavba...

Kel, cholg'uchi kel, yana,  
Yo'ldan ozdim, yana bir karra.  
Sen bilursan manzilni,  
Ol sozingni chal, yona.  
Ko'ngil ham pora-pora.  
Dardimga bormi chora,  
Ko'rsat o'zing, chiq, qara.

Kechamizni oydinlat.  
Bu yer qorong'u, zulmat.

## TÖVBE

Ey çalgıcı,  
şu gazeli oku:  
Ben sevgiliden geçtim, de.  
Gülden, dikenden geçtim,  
tövbe ettim, de.  
Bir gün sarhoştum,  
bir gün şöyle böyle.  
İkisinden de yudum elimi.  
Baktım na buraya kadar tövbenin içindeyim,  
dedim tövbelerime tövbe.  
Bu köyün şarapçısı hani nerede?  
Çabuk şu sağrığı doldursun.  
Ar da neymış,  
namus da ne?  
Korkütük olmuşum, korkütük işte,  
sıcağa, soğuğa tövbe etmişim,  
yaşa, kuruya tövbe.  
Gel çalgıcı, gel,  
ben yolumdan çıkışım bikere.  
Sen bilirsin yolunu,  
al çalayı, vur tele.  
Gönlüm benim paramparça.  
Bir çare derdime, bir çare.  
Göster kendini, çık ortaya,  
gecemizi aydınlat.  
Çok karanlık, çok.

## NE BO'LOLSANG BO'L

Pulni ber, ko 'ngilni ber, jonni ber  
Lekin SIRINGNI BERMA!...

Kunlar sana, foydang sana, katta sana  
Lekin O'RNIDA SANAMA!..

Ishni sev, oshni sev, juftni sev  
Lekin O'ZINGNI SEVMA!..

Ko 'mak ber, qulqoq ber, ilm ber  
Lekin E'TIBOR BERMA!..

Nihol ek, asra bola, yo'qsulga qara  
Lek birovga KEK SAQLAMA!..

Da'vat qil, hayron qil, ulfat qil, afv qil  
Lekin XIYONAT QILMA!..

Kitob o'qi, kasb o'qi, dunyoni o'qi  
Lekin LA'NAT O'QIMA!..

Sinfdan o't, so'qmoqdan o't, raqibdan o't  
Lekin do'stim, KULIB O'TMA!..

Ko 'ngil ol, do 'st ol, hamroh ol  
Lekin DUOYI BAD OLMA!..

Tanish, gaplash, kel, yaqinlash,  
Lekin yana UZOQLASHMA!..

Xoh kasal bo'l, xoh tuzalgin, yuksal, qula,  
Lekin zinhor, EGILMA!..

Tebran, mavjlan, jim turmagin, to'lqinlan  
Lekin faqat ZANGLAMA!..

Uril, suril, mayli qo'shil  
Lekin aslo, SOTILMA!..



## NE OLURSAN OL

Paranı ver, gönlünü ver, canını ver  
Ama SIRRINI VERME! ...

Günlerini say, kazancını say, büyüklerini say  
Ama YERİNDE SAYMA! ...

İşini beğen, aşını beğen, eşini beğen  
Ama KENDİNİ BEĞENME! ...

Emek ver, kulak ver, bilgi ver  
Ama SAKIN BOŞ VERME! ...

Fidan büyüt, çocuk eğit, yoksul besle  
Ama KİN BESLEME! ...

Davet et, hayret et, ülfet et, affet  
Ama İHANET ETME! ...

Kitap oku, meslek oku, dünyayı oku  
Ama LANET OKUMA! ...

Sınıfinı geç, hayatını seç, rakibini geç  
Ama GÜLÜP GEÇME! ...

Gönül al, dost al, yoldaş al  
Ama BEDDUA ALMA! ...

Yaklaş, tanış, konuş, uzaklaş  
Ama UŞAKLAŞMA! ...

Doğrul, sayril, evril, devril  
Ama EĞRİLME! ...

Hislen, tasalan, seslen, uslan  
Ama PASLANMA! ...  
İtil, ütül, atıl, katıl

Ama SATILMA! ...

**BOIALAR KABI**

Menda hech tugamas hayot bor edi,  
Qirlarga yoyilgan lolalar kabi.  
Qalbim hech tin olmay tez-tez urardi,  
Ko'ksimning ichida olov bor kabi.

Ba'zan nur ichida, ba'zan tumanda,  
Ba'zan seni sevgan mehribon qalbda.  
Goh qo'l ustidaman, gohi hibsda,  
Tinimsiz esuvchi shamollar kabi.

Sevgim ikki kunlik intiho edi,  
Hayotim tasodif, mojaroi edi.  
Ichimda juda ko'p orzu bor edi,  
Shoir yohud bir hukmdor kabi.

His qilgach seni sevib qolganim,  
Tushundim qanchalar horib, tolganim.  
Tinchlanib qolganim, ko'nib qolganim,  
Dengizga to'kilgan bir irmoq kabi.

Endi she'r men uchun sening so'zingdir,  
Endi mening taxtim, sening izingdir,  
Sevgilim, saodat ikkimizningdir,  
Samolardan kelgan yodgorlik kabi.

So'zing she'rlarning eng mukammalidir,  
Sendan boshqasini sevgan dallidir,  
Yuzing gul-chechakning eng go'zalidir,  
So'zlarining notanish bir diyor kabi.

Boshingni ko'ksimga qo'ygin sevgilim,  
Mayin sochlaringni silasin qo'lim.  
Ham shodon, ham g'amgin o'tsin har kunim,  
Sevib qolgan beg'ubor bolalar kabi.

## ***ÇOCUKLAR GİBİ***

Bende hiç tükenmez bir hayat vardı,  
Kırlara yayılan ilkbahar gibi.  
Kalbim hiç durmadan hızla çarpardı.  
Göğsümün içinde ateş var gibi.

Bazı nur içinde, bazı sisteyim,  
Bazı beni seven bir gögüsteyim,  
Kah el üstündeydim, kah hapisteydim,  
Her yere sokulan bir rüzgar gibi.

Aşkım iki günlük iptilalardı,  
Hayatım tükenmez maceralardı,  
İçimde binlerce istekler vardı,  
Bir şair, yahut bir hükümdar gibi.

Hissedince sana vurulduğumu,  
Anladım ne kadar yorulduğumu,  
Sakinleştiğimi, durulduğumu,  
Denize dökülen bir pınar gibi.

Şimdi şiir bence senin yüzündür,  
Şimdi benim tahtım senin dizindir,  
Sevgilim, saadet ikimizindir,  
Göklerden gelen bir yadigar gibi.

Sözün şirlerin mükemmelidir,  
Senden başkasını seven delidir,  
Yüzün çiçeklerin en güzelidir,  
Gözlerin bilinmez bir diyar gibi.

Başını göğsüme sakla sevgilim,  
Güzel saçlarında dolaşın elim,  
Bir gün ağlayalım, bir gün gülelim,  
Sevişen yaramaz çocuklar gibi.

## QOR

Qor yog'ganini ko'rib,  
Qor bosgan tuproqni anglab yetasan.  
Tuproqda bir qarich qorni ko'rganda,  
Qor ichida yongan qorni anglab yetasan.

Alloh ko'kdan qorni yog'dirsa,  
Qorlar – issiqliqina, sochingga tegsa,  
Boshingni qorlar quyiga egsa,  
Mening bu she'rimni anglab yetasan.

Bu odam, u odam kelib ketadi,  
Sening qo'llaringda, xayollarim kelib ketadi.  
Har bir avf ichida, intiqom kelib ketadi,  
Bu she'rimni anglasang, meni anglab yetasan.

Men bu she'rni yozdim oshiqlar kabi,  
Shunday qor yog'diki, qo'lim muz kabi.  
Ruhim senga ilhaq, yorqin nur kabi,  
Hammasini, meni anglagach, anglab yetasan.



## KAR

Karin yağdığını görünce,  
Kar tutan toprağı anlayacaksın.  
Toprakta bir karış karı görünce,  
Kar içinde yanın karı anlayacaksın.

Allah kar gibi gökten yağınca,  
Karlar sıcak sıcak saçlarına deince,  
Başını önüne eğince,  
Benim bu şiirimi anlayacaksın.

Bu adam o adam gelip gider,  
Senin ellerinde rüyam gelip gider,  
Her affin içinde bir intikam gelip gider,  
Bu şiirimi anlayınca beni anlayacaksın.

Ben bu şiiri yazdım aşık çeşidi,  
Öyle kar yağdı ki elim üşüdü,  
Ruhum seni düşününce ışdı,  
Her şeyi beni anlayınca anlayacaksın.



## TUSHUNTIRIB BEROLMAYMAN

Yig'lasam ovozimni eshitasizmi,  
Misralarimda?  
Ohista tegina olasizmi,  
Ko'z yoshlarimga qo'lingiz bilan?

Bilmasdim qo'shiqlar bu qadar go'zal,  
So'zlarning kifoya qilmasligini,  
Bu dardga yo'liqmaguncha...

Bir joy bor, bilaman,  
Hammasini aytish mumkin,  
Juda yaqin qoldim, eshityapman,

TUSHUNTIRIB BERA OL MAYMAN...



## ***ANLATAMIYORUM***

Ağlasam sesimi duyar misiniz,  
Mısralarımda;  
Dokunabilir misiniz,  
Gözyaşlarımıma, ellerinizle?

Bilmezdim şarkıların bu kadar güzel,  
Kelimelerinse kifayetsiz olduğunu  
Bu derde düşmeden önce.

Bir yer var, biliyorum;  
Her şeyi söylemek mümkün;  
Epeyce yaklaşmışım, duyuyorum;

***ANLATAMIYORUM.***



### MENING SODIQ YORIM

Do‘stim debon har kimlarga suyandim,  
 Mening sodiq yorim qora tuproqdir.  
 Behuda yugurdim, bekorga yondim,  
 Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Qancha go‘zallarga bog‘lanib qoldim,  
 Na bir vafo ko‘rdim, na foyda topdim.  
 Har qanday istagim tuproqdan oldim,  
 Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Qo‘y berdi, qo‘zi berdi, sut berdi,  
 Yemak berdi, non berdi va et berdi,  
 Haydalmaguncha, tuproq “qahat” derdi,  
 Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Odam Atodanki naslim keltirdi,  
 Menga turli-tuman meva yedirdi,  
 Har kun meni bosh ustida ko‘tardi,  
 Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Qornin yordim belkurakda, ketmonda,  
 Betin yirtdim tirnog‘imda, qo‘limda,  
 Shunda ham u gul tutqazdi qo‘limga,  
 Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Azob bersam, jilmayib turardi,  
 Unda yolg‘on yo‘qdir, hamma ko‘rardi.  
 Bir urug‘ qadadim, to‘rtta bog‘ berdi,  
 Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Osmonga qarasam havo olaman,  
 Tuproqqa qarasam duo olaman,  
 Tuproqdan ayrilsam qayga boraman,  
 Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Tilaging bor bo'lsa, so'ra Allohdan,  
Olmoq uchun uzoq ketma tuproqdan,  
Saxiylik tuproqqa berilgan Haqdan,  
Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Haqiqat izlasang, ayon bir nuqta,  
Alloh qulga yaqin, qul ham Allohga,  
Haqning sirli xazinasi tuproqda,  
Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Butun aybimizni tuproq yashirar,  
Malham qo'yib yaramizni yaxshilar,  
Ochiq qo'li yo'llarimizni poylar,  
Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

Har kim bo'lsaki bu sirga mazhar,  
Dunyoda qoldirar o'lmas bir asar,  
Kun kelib Vaysalni bag'riga bosar,  
Mening sodiq yorim, qora tuproqdir.

## BENİM SADIK YARIM KARA TOPRAKTIR

Dost dost diye nice sine sarildim,  
Benim sadik yarim kara topraktir,  
Beyhude dolandim boşa yoruldum,  
Benim sadik yarim kara topraktir.

Nice güzellere bağlandım kaldım,  
Ne bir vefa gördüm ne fayda buldum,  
Her türlü isteğim topraktan aldım,  
Benim sadik yarim kara topraktır.

Koyun verdi kuzu verdi süt verdi,  
Yemek verdi ekmek verdi et verdi,  
Kazma ile doğmeyince kit verdi,  
Benim sadik yarim kara topraktır.

Âdem'den bu deme neslim getirdi,  
Bana türlü türlü meyva yedirdi,  
Her gün beni tepesinde götürdü,  
Benim sadık yârim kara topraktır.

Karnın yardım kazmayınan belinen,  
Yüzün yırttım tırnağınan elinen,  
Yine beni karşıladı gülünen,  
Benim sadık yârim kara topraktır.

İşkence yaptıka bana gülerdi,  
Bunda yalan yoktur herkes de gördü,  
Bir çekirdek verdim dört bostan verdi,  
Benim sadık yârim kara topraktır.

Havaya bakarsam hava alırım,  
Toprağa bakarsam dua alırım,  
Topraktan ayrılsam nerde kalırım,  
Benim sadık yârim kara topraktır.

Dileğin varsa iste Allah'tan,  
Almak için uzak gitme topraktan,  
Cömertlik toprağa verilmiş Hak'tan,  
Benim sadık yârim kara topraktır.

Hakikat ararsan açık bir nokta,  
Allah kula yakın kul da Allah'a,  
Hakkın gizli hazinesi toprakta,  
Benim sadık yârim kara topraktır.

Bütün kusurumuzu toprak gizliyor,  
Merhem çalıp yaralarımı düzüyor,  
Kolun açmış yollarımı gözlüyor,  
Benim sadık yârim kara topraktır.

Her kim ki olursa bu sırra mazhar,  
Dünyaya bırakır ölmeye bir eser,  
Gün gelir Veysel'i bağırla basar,  
Benim sadık yârim kara topraktır.

### SEN BILARSAN

Pichirlagan saslarni,  
Qalbdagi havaslarni,  
Eng zaif nafaslarni,  
Sen bilarsan, Allohim!

Shovqinlasa bu samo,  
Mayin essa gar sabo,  
Yashirin qilsak duo,  
Sen bilarsan, Allohim!

Arilar ne so'ylasa,  
Qushlar niyoz aylasa,  
Bir go'dak "Alloh" desa,  
Sen bilarsan, Allohim!

### SEN DUYARSIN

Fisilti sesleri,  
Kalpteki hevesleri,  
En zayıf nefesleri,  
Sen duyarsın Allah'im.

Gögün gürültüsünü,  
Suyun şırıltısını,  
Dua miriltısını,  
Sen duyarsın Allah'im.

Arilar ne söylese,  
Kuşlar niyaz eylese,  
Bir çocuk Allah dese,  
Sen duyarsın Allah'im.

## SALOM BO'LSIN

Tafakkurning qiymatini  
Bilganlara salom bo'lsin.  
Bir yetimning ko'z yoshini  
Olganlara salom bo'lsin.

To'g'ri so'zli eranlara,  
Haq yo'lida teranlara,  
Ko'nglin Haqqa beranlara,  
Salom bo'lsin, salom bo'lsin.

G'azabini yutganlara,  
Ahdin mahkam tutganlara,  
G'ururini otganlara,  
Salom bo'lsin, salom bo'lsin.

Mavt sharobin ichganlara,  
Iymon ila ko'chganlara,  
Qanotlanib uchganlara,  
Salom bo'lsin, salom bo'lsin.

Ilmi ladun o'tganlara,  
Ma'rifatga yetganlara,  
Haqni ayon etganlara,  
Salom bo'lsin, salom bo'lsin.

Qubbalarda xush bir sado,  
Ortda qolmoqdadir vido.  
Borlig'ini Haqqa fido  
Etganlara salom bo'lsin.

Umar, yo'ling bo'ldi ayon,  
G'ofil bo'lma, Haqqa tayan.  
Dunyo foniyligin bayon  
Etganlara salom bo'lsin.

## **SELAM OLSUN**

Tefekkürün kıymetini,  
Bilenlere selam olsun,  
Bir yetimin göz yaşını,  
Silenlere selam olsun.

Doğru sözlü olanlara,  
Hak yolunu bulanlara,  
Gönüllere dolanlara,  
Selam olsun selam olsun.

Öfkesini yutanlara,  
Hem ahdini tutanlara,  
Gururunu atanlara,  
Selam olsun selam olsun.

İman ile göçenlere,  
Hak şarabın içenlere,  
Kanatlanıp uçanlara,  
Selam olsun selam olsun.

İlm-i ledün bilenlere,  
Marifete erenlere,  
Hakkı ayan görenlere,  
Selam olsun selam olsun.

Kubbelerde hoş bir seda,  
Bırakıp etmeli veda,  
Varlığını Hakka feda,  
Kılanlara selam olsun.

Ömer yol göründü ayan,  
Gafil olma Hakka dayan,  
Dünya fani belli beyan,  
Bilenlere selam olsun.

## SOG'INDIM

Ishqing ila yo'g'rilgan  
Yillarimni sog'indim.  
Qalb tubida qovrilgan,  
Bor sevgimni sog'indim.

Sochlaringning tolasi,  
Sekin-asta tushsa-da,  
Necha yildirki sening  
Ko'zlarining sog'indim.

Ko'zgular qo'rqlitsa ham,  
Ko'rsatib yolg'iz meni,  
Qoldim o'tmishda, tamom,  
Nur yuzingni sog'indim.

Sayr etdim necha yuzda,  
Kezindim tog'u tuzda.  
Bahorda, yozda, kuzda  
O'tgan qishimni sog'indim.

O'ttiz uch yil oldidan  
Oydin-yorug' kechadan,  
Topilmas topishmoqdan  
Bir hijoni sog'indim.

Ko'p kuttirma der eding,  
Meni qattiq sevarding.  
Meni silab uyg'otgan  
Ro'molchangni sog'indim.

Umar, uyg'on g'aflatdan,  
Qutil bu jaholatdan.  
Ishq ila shahodatdan  
Men qonmoqni sog'indim.

## ÖZLEDİM

Aşkınla avunduğum,  
O yılları özledim.  
Ben kalbimin içinde,  
Hep sevgini gizledim.

Sağlarımın telleri,  
Birer birer düşsede,  
Ben yillardır hep senin,  
Gözlerini özledim.

Aynalar korkutsa da,  
Baktıkça benliğimi,  
Ben hep mazide kaldım,  
Nur yüzünü özledim.

Seyrettim nice yüzde,  
Gezindim dağda düzde,  
Baharda yazda güzde,  
O kişları özledim.

Otuz üç yıl önceden,  
Mehtaplı bir geceden,  
Çözülmez bilmeceden,  
Bir heceyi özledim.

Çok bekletme diyordun,  
Beni çok seviyordun,  
Rıhtımda salladığın,  
Mendilini özledim.

Ömer uyan gafletten,  
Kurtul bu cehaletten,  
Aşk ile şahadetten,  
Ben kanmayı özledim.

## ONASINING QIYMATINI

Shu jahonda bilgan bormi,  
Onasining qiymatini.  
Bilmay turib kulgan bormi  
Onasining qiymatini.

Hayronaman kulganlarga,  
Ketganlarga, kelganlarga.  
Havas qilgum bilganlarga –  
Onasining qiymatini.

Taqdir: fursat ketdi qo‘ldan,  
Bulbul uchdi g‘uncha guldan,  
Bilolmadim jonu dildan,  
Men onamning qiymatini.

Kimsalar bilmadi hayhot,  
Oqibat ayladi faryod,  
Bilmaganning ishi barbod,  
Onasining qiymatini.

Biror ishga yaramading,  
Rizosini ololmading,  
Umar sen ham bilolmading,  
Oh, onaning qiymatini.

## ANNESİNİN KİYMETİNİ

Şu cihanda bilen var mı,  
Annesinin kıymetini.  
Bilmeyince gülen var mı,  
Annesinin kıymetini.

Şaşarım ben gülenlere,  
Gidenlere gelenlere,  
İmrenirim bilenlere,  
Annesinin kıymetini.

Yazık fırsat gitti elden,  
Bülbül uçtu gonca gülden,  
Bilemedim canu dilden,  
Ben annemin kıymetini.

Anne deyip ağlıyorum,  
Sular gibi çağlıyorum,  
Yüreğimi dağlıyorum,  
Bilemedim kıymetini.

Kimseler bilmedi hey hat,  
Sonunda eyledi feryat,  
Bilmeyenin işi berbat,  
Annesinin kıymetini.

Ömer sende bilemedin,  
Rızasını alamadın,  
Yazık işe yaramadın,  
Ah, annenin kıymetini.

## NASIHAT

Senga bir so'zim bor: tingla birodar,  
Kimsaning ko'nglini ranjitay dema.  
Nafsingga ergashib nar-i jahimga,  
Taqdir deb o'zingni otayin dema.

Kibr, riyo, hasad, shahvatga to'lma,  
Kin tuyg'usi ila intiqom olma,  
Hasad-la ruhingni otashga solma,  
G'iybat-la og'iz ochayin dema.

Yaxshi bo'l doimo, yomonlik etma,  
Nafsi ammoraning ortidan ketma.  
Odil bo'l, kimsaga zinhor zulm etma,  
Mazlumning ohini olayin dema.

Qur'onga ko'ngil berib bo'l salomat,  
Orif bo'l, kalomingda bo'lzin hikmat,  
Shioring bo'lzin har zamon malomat,  
Zinhor egri yo'ldan borayin dema.

Komilga bergan so'zingni unutma,  
Tavhid javharini qalbingdan otma,  
Jondir uning bahosi, tosh-la teng,  
Uni noahilga sochayin dema.

## NASİHAT

Sana bir sözüm var dinle kardeşim,  
Kimsenin gönlünü yıkayım deme,  
Nefsine uyupta nar-ı cehime,  
Yaziktır kendini atayım deme.

Kibir, riya, haset, şehvete dalma,  
Kin duygusu güdüp intikam alma,  
Hiddetle ruhunu ateşe salma,  
Giybetle ağızını açayım deme.

Herkese iyilik et kötülik etme,  
Nefsi emmarenin peşinden gitme,  
Adil ol kimseye sakın zulmetme,  
Mazlumun ahını alayım deme.

Kur'ân'a gönül ver onda selamet,  
Arif ol hikmetle daim kelam et,  
Şiarm her zaman olsun melamet,  
Sakın başka yola gideyim deme.

Kamile verdığın sözü unutma,  
Tevhit cevherini kalbinden atma,  
Candır ona paha, taşla bir tutma,  
Anı na ehline saçayım deme.

## SHUKR, MAVLOGA MAVLOGA

Yor Jamoliga maftunman,  
Shukr Mavloga, Mavloga.  
Bu savdo ila majnunman,  
Shukr Mavloga, Mavloga.

Sarupo do'st ayon bo'ldi,  
Butun asror bayon bo'ldi.  
Ko'ngil Qur'on ila to'ldi,  
Shukr Mavloga, Mavloga.

"Vaannal quvvata lillah"  
Tajalliy ayladi valloh  
Erishdik vahdatga billoh,  
Shukr Mavloga, Mavloga.

Zuhur etdi sifatulloh,  
Ko'rindi samma vajhulloh,  
Fanoga yetdi g'ayrulloh,  
Shukr Mavloga, Mavloga.

Ziyo g'arq bo'ldi anvora,  
Boqib mast bo'ldi ham yora,  
Yo'q mayli endi ag'yora,  
Shukr Mavloga, Mavloga.

## ŞÜKÜR MEVLAYA MEVLAYA

Cemali yare meftunum,  
Şükür mevlaya mevlaya.  
Bu sevda ile mecnunum,  
Şükür mevlaya mevlaya.

Serapa dost ayan oldu,  
Bütün esrar beyan oldu,  
Gönül kur'an ile doldu,  
Şükür mevlaya mevlaya.

'Veennelkuvvetelillah',  
Tecelli eyledi vallah,  
Erişik vahdete billah,  
Şükür mevlaya mevlaya.

Zuhur etti sıfatullah,  
Göründü semme vechullah,  
Helake erdi gayrullah,  
Şükür mevlaya mevlaya.

Ziya gark oldu envare,  
Bakıp mest oldu hem yare,  
Yok artık meyli ağıyare,  
Şükür mevlaya mevlaya.

## YETMAS

Lutfing shunday ulug‘, shunday buyukki,  
Shukrini ado qilmoqqa toqatim yetmas.  
Topib bo‘lmas shunday ulkan jumboqki,  
Yozmoqqa qog‘ozlar, qalamlar yetmas.

Rabbim, meni afv et, ko‘p gunohkorman,  
Arshga chiqsa ozdir oh ila zorim.  
Nafsim ilkidan men shunday bezorman,  
Uni zabit etmoqqa imkonim yetmas.

Minglarcha ne’matga noil aylading,  
Xizmati Qur’onga foil aylading.  
Bu kamtar qulingni soil<sup>3</sup> aylading,  
Ming bir tili bo‘lsa ham, yana yetmas.

Uzmam umidimni; Rahmon, Rahimsan,  
Ham G‘afur, ham Rauf, hamda Karimsan.  
Lutfing istayurman, chunki Latifsan,  
Tuganmas so‘zlarim vasfingga yetmas.

Bo‘lolmam albatta makringdan emin,  
Qo‘rqaman do‘zaxingdan, “azabul aliym”.  
Qilma jahannamni biz uchun zamin,  
Yo Rab, azobingga kuchimiz yetmas.

Habibingni shafoatchi qil bizga,  
Qur’on ila amal qilaylik so‘zga.  
Rabbim, asra hasad-u yomon ko‘zdan,  
G‘azab, shahvat, takabburga kuch yetmas.

---

<sup>3</sup> Soil – tilanchi, so‘rovchi.

Oson qil savolim, javob berayin,  
Nasib ayla jannatingga kirayin,  
Jannatingda Jamolingni ko'rayin,  
Qahringga kimsaning toqati yetmas.

Rizoga muvaffaq ayla Ziyoni,  
Dardlarga ham Sen berursan davoni,  
Qabul ayla, rad aylama duomni,  
Og'ir mashaqqatga toqatim yetmas.



## YETMEZ

Lütfun öyle büyük öyle yüce ki,  
Şükrünü edaya takatim yetmez,  
Öyle bilinmeyen bir bilmecə ki,  
Yazmaya kağıtlar kalemlər yetmez.

Rabbim beni af et, pek günahkarım,  
Arşa çıksa azdır ah ile zarım,  
Nefsimin elinden pek çokizarım,  
Onu zapdetmeye urganlar yetmez.

Binlerce nimete nail eyledin,  
Hizmet-i Kur'ana fail eyledin,  
Bu kemter kulunu sail eyledin,  
Binbir dili olsa yinede yetmez.

Kesmem ümidimi, Rahman Rahim sin,  
Hem Gafur hem Rauf hem de Kerimsin,  
Lütfunu umarım çünkü Latif sin,  
Tükenir sözcükler vasfına yetmez.

Olamam elbette mekrinden emin,  
Korkarım narından işte bin yemin,  
Etme cehennemi bizlere zemin,  
Ya Rab azabına gücümüz yetmez.

Habibini şefaatçı kıl bize,  
Kur'an ile başlayalım biz söze,  
Aman ya Rab! haset ile kem göze,  
Gazap, şehvet tekebbüre güç yetmez.

Asan eyle sualimi vereyim,  
Nasip eyle cennetine gireyim,  
Cennetinden cemalini göreyim,  
Kahrma kimsenin takati yetmez.

Rızana muaffak eyle Ziya'yı,  
Dertlerine sen verirsin devayı,  
Kabul eyle reddeyleme keda'yı,  
Ağır mihnetlere takatim yetmez.



## ISMI GO'ZAL, O'ZI GO'ZAL MUHAMMAD

Jonim qurbon bo'lsin bu yo'lingizga,  
Ismi go'zal, o'zi go'zal Muhammad.  
Shafoat aylang bu kamtar qilingizga,  
Ismi go'zal, o'zi go'zal Muhammad.

Mo'min bandalarning ko'pdır jafosi,  
Oxiratda bo'lur zavqu safosi,  
O'n sakkiz ming olamning Mustafosi,  
Ismi go'zal, o'zi go'zal Muhammad.

Yetti qat samoni sayron aylagan,  
Kursiyning ustida javlon aylagan.  
Me'rojda ummatin Haqdan tilagan,  
Ismi go'zal, o'zi go'zal Muhammad.

To'rt choriyor aning go'zal yoridir,  
Ani sevgan gunohlardan beridir.  
O'n sakkiz ming olamni sarvaridir.  
Ismi go'zal, o'zi go'zal Muhammad.

Oshiq Yunus naylasin jahonni Sizsiz,  
Siz Haq Payg'ambarsiz, shaksiz, gumonsiz.  
Sizga ergashmagan ketar iymonsiz,  
Ismi go'zal, o'zi go'zal Muhammad.  
(Sollallohu alayhi vasallam)

## **ADI GÜZEL, KENDİ GÜZEL MUHAMMED**

Canım kurban olsun senin yoluna,  
Adı güzel, kendi güzel Muhammed.  
Şefaat eyle bu kemter kuluna,  
Adı güzel, kendi güzel Muhammed.

Mumin olanların çoktur cefası,  
Ahirette olur zevk ü sefası.  
Onsekiz bin alemin Mustafa'sı,  
Adı güzel, kendi güzel Muhammed.

Yedi gökleri seyran eyleyen,  
Kürsi'nin üstünde cevlan eyleyen,  
Mi'racda ümmetini dileyen,  
Adı güzel kendi güzel Muhammed.

Dört çaryar anun gökçek yaridur,  
Anı seven günahlardan beridur.  
On sekiz bin alemin sultanıdır,  
Adı güzel, kendi güzel Muhammed.

Aşık Yunus n'ider dünyayı sensiz,  
Sen hak Peygamberin şeksiz şüphesiz.  
Sana uymayanlar gider imansız,  
Adı güzel, kendi güzel Muhammed.  
(Sallallahu Aleyhi Vesellem)

## MENGA BIR SEN KERAKSAN

Ishqing oldi mendan meni,  
Menga faqat Sen keraksan  
Men yonayin kun-u tun,  
Menga bir Sen keraksan.

Na borliqqa sevinaman,  
Na yo'qlikdan joy olaman.  
Ishqing ila ovunaman,  
Menga bir Sen keraksan.

Ishqing oshiqni o'ldirar,  
Ishq dengizida qoldirar,  
Tajalliy bilan to'ldirar,  
Menga bir Sen keraksan.

Ishqing sharobidan ichay,  
Majnun bo'lib tog'ga chiqay.  
Sensan tun-u kun andisham,  
Menga bir Sen keraksan.

So'fiylarga suhbat kerak,  
Axiyga oxirat kerak.  
Majnunlarga Laylo kerak,  
Menga bir Sen keraksan.

Agar meni o'ldirsalar,  
Kulim ko'kka sovursalar.  
Tuprog'im anda chorlagay:  
Menga bir Sen keraksan.

Jannat-jannat deganlari,  
Bir necha ko'shk-u, hurlari.

Istaganga ber ularni,  
Menga bir Sen keraksan.

Yunus erur mening otim,  
Ishqingda ortadi o'tim.  
Ikki jahonda maqsudim,  
Menga bir Sen keraksan.

### BANA SENİ GEREK SENİ

Aşkm aldı benden beni,  
Bana seni gerek seni,  
Ben yanarım dün ü günü,  
Bana seni gerek seni.

Ne varlığa sevinirim,  
Ne yokluğa yerinirim,  
Aşkın ile avunurum,  
Bana seni gerek seni.

Aşkın aşağı öldürür,  
Aşk denizine daldırır.  
Tecelli ile doldurur,  
Bana seni gerek seni

Aşkın şarabından içem,  
Mecnun olup dağa düşem,  
Sensin dünü gün endişem,  
Bana seni gerek seni.

Safilere sohbet gerek,  
Ahilere ahret gerek,  
Mecnunlara Leyla gerek,  
Bana seni gerek seni.

Eğer beni öldüreler,  
Külüm göğe savuralar,  
Toprağım anda çağırı,  
Bana seni gerek seni.

Cennet cennet dedikleri  
Birkaç köşkle birkaç huri  
İsteyene Ver anları  
Bana seni gerek seni

Yunus'dürür benim adım  
Gün geçtikçe artar odum  
İki cihanda maksudum  
Bana seni gerek seni



## **ALLAH**

Ishqing o'ti jigarimni yoqib keldi, yoqib ketar,  
G'arib boshim bu savdoni chekib keldi, chekib ketar.

Kor etdi firoq jonima, oshiq bo'ldim ul Sultona,  
Ishq zanjirin yor bo'yniga taqib keldi, taqib ketar.

Vafodor turgay so'zida, o'zga ko'rinas mas ko'ziga,  
Bu ko'zlarim Yor yuziga boqib keldi, boqib ketar.

U yerda bo'lmasin noshi<sup>4</sup>, o'nglanmas bag'rim quyoshi,  
Ko'zlarimning qonli yoshi, oqib keldi, oqib ketar.

Bulbul qilar ohu fig'on, hasrat ila yondi bu jon,  
Mening yurakkinam qindan, chiqib keldi, chiqib ketar.

So'ylansa Yunus so'zlari, afg'on qilur bulbullari,  
Yor bo'stoni gullarining bo'y়i keldi, bo'y়i ketar.

---

<sup>4</sup> Nosh – kafanlangan o'lik.

## ALLAH

Aşkm odu cigerimi, yaka geldi, yaka gider,  
Garip başım bu sevdayı, çeke geldi çeke gider.

Kâr etti firak canıma, aşık oldum ol Sultana,  
Aşk zencirin dost boynuna, taka geldi, taka gider.

Kor etdi firoq jonima, oshiq bo`ldim ul Sulton'a,  
Ishq zanjırın yor bo`yniga taqib keldi, taqib ketar.

Sadıklar durur sözüne, gayrı görünmez gözüne,  
